

## **FRANCHAYZING MUNOSABATLARI VA YIRIK FRANCHAYZER "MC DONALD'S"**

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti .*

*Agrobiznes va raqamli iqtisodiyot fakulteti . Agrobiznes va investitsion faoliyat ta'lim yo'nalishi 3-bosqich 67 guruh talabasi*

***Kamoliddinov Sherzodbek Latifjon o'g'li***

**ANNOTATSIYA:** Globalashuv davrida iqtisodiyotga kirib kelib o'zining o'rni va rolini yaqqol ko'rsatib bergan Franchayzing munosabatlarining amalga oshish bosqichlari va iqtisodiy mohiyati yirik fast foot kompaniyasi "McDonald's" misolida

**KALIT SO'ZLAR:** "McDonald's", **franchayzing** ,**franshiza**,**franchayzer**, **royalti**, **franchayzi**, **Paushal to'lov**, **Reklama to'lovi**, **Master franshiza** , **Subfranchayzing**

**Franchayzing** inglizcha so'z bo'lib, **franshiza imtiyoz**, yoki **tijorat konsessiyasi** — bozor subyektlari o'rtasidagi munosabat turilaridan biri bo'lib unda bir tomon **franchayzer** ikkinchi tomonga **franchayzi** tadbirkorlikning ma'lum bir turida ish yuritishning o'zi tomonidan ishlab chiqilgan biznes modelidan: franchayzerning brendi, savdo belgisi, xom ashyosi va texnologiyalaridan foydalanib, uning nomidan ish yuritishga haq evaziga akkord; bir yoki ko'p martalik to'lov evaziga ruxsat berishi asosida amalga oshadigan iqtisodiy jarayon . Umumiy ma'noda, franchayzing — bu savdo belgisi yoki kommersion belgini „ijaraga olishni“ bildiradi. oladi.

Filip Kotler franchayzingning quyidagi elementlarini alohida ta'kidlaydi

**Franchayzer** o'z savdo belgisidan foydalanganlik uchun put ajratmasi oladi, ko'pincha, xom ashyo, butlovchi qismlar yetkazib berish va xodimlarni o'qitishni ham ta'minlaydi.

**Franchayzi** franchayzer tomonidan ishlab chiqilgan sxema bo'yicha biznes yuritish huquqini sotib oladi (to'lovlarni to'laydi). Franchayzi o'z savdo nuqtasini tayyorlash, ishga tushirish va ishlatish xarajatlarini o'z zimmasiga oladi.

**Franshiza** — bu franchayzerning talablariga javob beradigan biznes yuritishning barcha jihatlari va shartlarini tavsiflovchi tizim.

**Paushal to'lov** nemischadan *qalin, yog'li bo'lak* — franshizaning qiymati, franchayzi dastlabki bosqichda franchayzerga to'laydigan belgilangan miqdordagi to'lov. Odatda bu umumiy boshlang'ich xarajatlarning 9-11 % ni tashkil qiladi.

**Royalti** — franchayzerning tovar belgilari, patentlari va yoki boshqa mualliflik huquqlaridan foydalanganlik uchun oylik to'lov. Bu franchayzi aylanmasi daromadidan 2-6 % yoki aylanma daromadga bog'liq bo'lmagan miqdorda belgilanishi yoki hatto nolga teng bo'lishi mumkin.

**Reklama to'lovi** — **global reklama va marketing kampaniyalarini o'tkazganligi uchun franchayzer foydasiga to'lanadigan oylik to'lov. Bu aylanma daromaddan 1-3 % yoki belgilangan miqdorda bo'lishi mumkin. Royalti to'lovi miqdoridan alohida shaklda to'lanadi.**

### **Franchayzing shakllari**

To'g'ridan-to'g'ri franchayzing. **Hududni cheklagan holda ish faoliyatini amalga oshirish huquqini bir shaxsga (bitta korxonaga uchun) berishni anglatadi.**

**Subfranchayzing.** Ushbu shaklga ko'ra, franchayzer subfranchayzerga belgilangan hudud uchun o'z huquqlarining katta qismini o'tkazadi. Subfranchayzer bu hududda savdo nuqtalarini ochish va franshizalarni uchinchi shaxslarga sotish huquqini oladi.

**Master franshiza** subfranchayzingga juda yaqin bo'lib, odatda, yirik xalqaro tarmoqlar faoliyatida qo'llaniladi (odatda, belgilangan hududga butun mamlakat yoki mamlakatlar guruhi kiritiladi). Bosh kompaniyaning huquq va majburiyatlarining faqat bir qismi o'rta bo'g'inga berilgan oldingi shakldan farqli o'laroq, bu holda franchayzerning vakolatlarini to'liq va eksklyuziv ravishda master-franshizaga o'tkazib beriladi.

**"Yumshoq" franchayzing.** Bunda potentsial hamkorga biznes ochish uchun zarur bo'lgan barcha mablag'larning faqat yarmini kiritishi taklif qilinadi. Ikkinchi yarmini

qoplashni boshqaruv kompaniyasi o'z zimmasiga oladi. Keyinchalik, bu hamkor boshqaruv kompaniyasining ulushini ham sotib olish va franchayzingni yagona egasi bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday tizim, masalan, Mail Boxes Etc kompaniyasi ishlaydi<sup>[3]</sup>. Ba'zi hollarda kompaniyalar hamkoriga faqat yangi korxonada faoliyatini va joriy xarajatlarni boshqarishni qoldirib, franchayzing ochish uchun zarur bo'lgan investitsiyalarning 100 % gacha bo'lgan qismini o'z zimmalariga olishlari mumkin.

### Franchayzing turlari

**Tovarli.** Asosan savdo sohasida qo'llaniladi. Franchayzi franchayzer tomonidan yoki uning tovar belgisi ostida ishlab chiqarilgan tovarlarni sotish huquqini oladi. Franchayzing shartnomasi savdo texnologiyasini, xizmatlar va tovarlar assortimentini, ishlab chiqaruvchining tovar belgisidan foydalanishning aniq qoidalarini tartibga soladi. Masalan, ma'lum kompaniyaning poyabzal yoki kiyim-kechaklari sotadigan firma do'koni.

**Ishlab chiqarishda** (sanoatda). Franchayzi franchayzerning tovar belgisi ostida mahsulot ishlab chiqarish va sotish huquqini oladi. Franchayzi texnologiya va asosiy xom ashyoni olgan holda, ishlab chiqarish jarayoniga qo'yiladigan talablar, mahsulot hajmi, uning sifati, sotish rejalari, xodimlarning malakasi va hisobotlari haqida kelishib oladi.

**Xizmat ko'rsatishda.** Franchayziga franchayzerning tovar belgisi ostida xizmat ko'rsatishning ma'lum bir turi bilan shug'ullanish huquqi beriladi, bunda, franchayzer o'z hamkorini asbob-uskunalar, reklama va marketing texnologiyasi bilan ta'minlaydi. Qo'llab-quvvatlashdan tashqari, franchayzer ishlarni nazorat qiladi. Xizmat ko'rsatish franchayzingiga kiyimlarni kimyoviy tozalash tarmog'ini misol keltirish mumkin.

**Biznes formatli.** Franchayzer hamkoriga nafaqat savdo huquqini, balki ushbu turdagi biznesni tashkil etish uchun litsenziyani ham beradi. Hujjatlarda tadbirkorlik kontseptsiyasi aniq belgilanib, xodimlarni o'qitish bo'yicha batafsil yo'riqnomalar, interyer dizayniga, xodimlarning kiyim-kechaklari qo'yiladigan talablar ko'rsatilgan bo'ladi. Reklama siyosati, ish yuritish va tovar yetkazib beruvchilar bilan munosabatlar tartibga solinadi.

## **Yirik Franchayzer MC DONALDS ning dunyoga kelishi**

Chikagolik bo'lgan Rey Krok ikkinchi kursdan keyin o'rta maktabni tugatib, Birinchi Jahon urushi Qizil Xoch tez yordam korpusiga qo'shildi. Urush uning bo'linmasi xorijga jo'natilishidan oldin tugadi, Rey uyiga musiqachi sifatida pul topish va keyinchalik qog'oz stakanlarni sotish uchun qaytib keldi. 1939 yilda u Multimixer (sut kokteyli aralashtirish mashinasi) ning eksklyuziv distribyutoriga aylandi. U 1954 yilda aka-uka Makdonaldlarga tashrif buyurdi va bu uning franchayzing agenti bo'lishiga olib keldi. 1955 yilda Krok Missisipi daryosining sharqida birinchi McDonald'sni ochdi. McDonald's shirkati shtab-kvartirasi Illinois shtatining Oak Brook shahrida bo'lgan, 2018-yilning iyunida esa shtab-kvartirasi Chikagoga ko'chirildi. McDonald's daromadiga ko'ra jahondagi eng yirik restoranlar tarmog'i bo'lib, 2020-yilga ko'ra, 120 dan oshiq mamlakat va hududlarda 37 855 ta do'konlarga egadir. Bu restoran tarmoqlari har kuni 69 milliondan oshiq mijozlarga xizmat ko'rsatishadi. McDonald's hamburgerlari, chizburgerlari va kartoshka frilari ortidan tanilgan bo'lsa-da, mahsulotlari qatoriga gazli ichimliklar, sut va muzqaymoqli ichimliklar, vraplar va desertlar ham kiradi. Mijozlarning ta'bi o'zgarishi va korporatsiya oziq-ovqatlarining nosog'lomligiga salbiy reaksiyasiga javoban kompaniya menyusiga salatlar, baliq, smuzilar va mevalarni qo'shdi. McDonald's korporatsiyasi franchayzilar tarafidan to'lanadigan ijara va to'lovlar, shuningdek, kompaniya boshqaradigan restoranlardagi savdodan foyda ko'radi. 2018-yilgi ikki hisobotga ko'ra, McDonald's 1.7 million ishchisi bilan jahondagi ikkinchi eng yirik ish beruvchi xususiy shirkatdir (birinchi o'rinni 2.3 million ishchisi bilan Walmart egallab turibdi). 2020-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, McDonald's brend bahosiga ko'ra, jahonda to'qqizinchi o'rinni band etib turibdi. Ushbu brendning ortida uni brend sifatida tashkil etuvchi ekipaj, fermerlar, yetkazib beruvchilar, franchayzilar va boshqa son-sanoqsiz global hamjamiyat joylashgan. McDonald'sni bugungi va 65 yildan ortiq vaqtdan beri nima bo'lganiga aylantiradigan butun MakFamily. Ularning biznesi bo'ylab u o'zining joylashgan hamjamiyatlarni yuksaltirishga intiladi. Brend boshqaruv hodimlari buni o'z maqsadi orqali amalga oshiradi, jamiyatlarni oziqlantirish va qo'llab-quvvatlashni muhim hisoblashadi. Boshqaruvchilar buni biznesning ajralmas sohalariga qaratilgan o'sish ustunlari orqali

qilishadi. Ular buni brendni olg'a siljitadigan jamoasi bilan o'z rahbariyati orqali amalga oshirishadi .

MC DONALDS ning kelajakga qanday tayyorgarlik ko'rayotgani haqida ko'proq bilish uchun “Our Arches acceleration strategy “ deb nomlangan strategiyasi bilan ta'nishishning o'zi kifoya .

Kris Kempczinski - McDonald's korporatsiyasi raisi va bosh direktori. Uning rahbarligi ostida Kris McDonald'sning o'z mijozlarini jalb qilish usulini o'zgartirdi va McDonald'sning dunyodagi etakchi iste'molchi brendlaridan biri sifatidagi mavqeini mustahkamladi. Kris 2019 yilda bosh direktor, 2024 yilda esa boshqaruv raisi bo'ldi. Kris Kempczinski rahbarligi ostida McDonald's o'zining birinchi nol dizayndagi restoranini Walt Disney World Resort-da ochdi, u o'zining yillik energiyaga bo'lgan ehtiyojini 100% qoplash uchun yetarli darajada qayta tiklanadigan energiyani yaratdi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali O'zbekistonda tez orada "McDonald's" franchayzer tarmog'i ochilishi va O'zbekistonda "McDonald's" savdo belgilarini ro'yxatdan o'tkazish uchun arizalar topshirilgani haqida xabar tarqaldi. Bunga sabab sifatida “Reach Impex” tomonidan Adliya vazirligiga tegishli ariza bilan murojaat qilgani, shundan so'ng tegishli yozuvlar Intellektual mulk elektron davlat xizmatlari portali bazasida 11-mart kuni 202401749 va 202401748 raqamlari ostida ro'yxatdan o'tkazgani haqidagi ma'lumotlar tarqalganini ko'rishimiz mumkin. Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat reyestri ma'lumotlarga ko'ra, “Reach Impex” mas'uliyati cheklangan jamiyati Toshkent shahrida joylashgan bo'lib, u 2022-yilning 19-aprelida ro'yxatdan o'tgan. Ustav kapitali 211,1 mln so'm bo'lgan kompaniyaning ta'sischilari sifatida Usmonov Bahodir Burxonovich (60%) va Abdujabbarov Abror Axralovich (40%) ko'rsatilgan. "Reach Impex" kompaniyasi, hozirda "Uzum" onlayn bozorida tish cho'tkalarini sotmoqda. "McDonald's" savdo belgilari O'zbekistonda bundan avval ro'yxatdan o'tgan. "McDonalds" korporatsiyasi bu ishni 1990-yilda amalga oshirgan. Ushbu hujjatning amal qilish muddati 2024—2025 - yillarda tugashi kerak. Yuqorida ma'lum qilganimizdek, nima bo'lganda ham nazariy jihatdan har qanday kompaniya bu nomdan foydalanishi va mualliflik huquqini to'xtatishga harakat qilishi mumkin, bunda kompaniya

"McDonald's" brendi ostida biror narsani, masalan, paypoqlarni chiqarishi mumkin bo'лади. O'zbekiston bozorida hali hamon nima uchun "McDonald's" yo'q? Qozog'iston, Rossiya va Belarussiyadagi franchayzlar nima sababdan faoliyatini tugatdi? Ma'lum bo'lishicha, O'zbekistonda franchayzing sotib olmoqchi bo'lganlar bo'lgan va hozir ham ular mavjud. Bu eng asosiy va oddiy sabab. "McDonald's" kapitali 210 milliard dollarni tashkil etadi. (bu "BMW" va "Mercedes"ning jamlangan ulishdan ham ko'p) Uning daromadi ayrim mamlakatlar yalpi ichki mahsuloti bilan solishtirish ham mumkin (o'tgan yili bu ko'rsatkich 23 milliard dollarni tashkil etgan). Ma'lumot uchun, O'zbekistonning yalpi ichki mahsulot hajmi qariyb 91 mlrd AQSH dollarini tashkil qiladi. 2022-yilda "McDonald's" Rossiyani tark etdi va o'zining qozog'istonlik franchayzisiga Rossiyada go'sht sotib olishni taqiqladi. Shundan so'ng, Qozog'iston vakili variantlarni qidira boshladi, ammo topa olmadi. Bu vaziyatda go'shtni Yevropadan olib kelish juda qimmat bo'lib chiqadi va Qozog'istonda "McDonald's" standartlariga javob beradigan ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishning iloji topilmagan. Shu tariqa Qozog'istondagi "McDonald's" voqeasi shunday yakun topadi. Tabiiyki O'zbekiston uchun bu katta muammo tug'diradi. "McDonald's" barcha jarayonlarni bilishi va ko'rishi kerak, don kimda va qanday yetishtirilishidan boshlab, undan keyingi maxsus non uchun un tayyorlanishigacha. Bundan tashqari, unda faqatgina maxsus sertifikatlashdan o'tgan va istalgan vaqtda audit tekshirishlariga tayyor bo'lgan yetkazib beruvchilargina ishlashga ruxsat etiladi. "McDonald's" ning yillik aylanma daromadi 21,076 milliard AQSH dollarni Operatsion aylanmasi 9,070 milliard AQSH dollarini Boyligi 32,811 milliard AQSH dollari Sof foydasi esa 6,177 milliard AQSH dollarini tashqil qilsa ishchilar soni esa (2018 yil ma'lumoti) 210 000 kishini tashkil etib kelayotgan McDonald's restoranlari mavjud arxitektura va boshqa noyob xususiyatlarni o'zida mujassam etgan dizaynlarga ega. McDonald's arxitekturasi mijozlarimizning talablarini qondirish uchun rivojlanishda davom etmoqda.

**ADABIYOTLAR.**

1. <https://www.rankingthebrands.com/Brand-detail.aspx?brandID=7>
2. <https://yandex.ru/search/?clid=2413868-193&win=559&from=chromesearch&text=MC+DONALDS&lr=10329>
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/McDonald%27s>
4. <https://yandex.ru/search/?clid=2413868-193&win=559&from=chromesearch&text=MC+DONALDS+O%27ZBEKISTONDA&lr=10329>
5. <https://daryo.uz/2021/05/18/dunyo-fast-fud-olami-qiroli-mcdonalds-kompaniya-tarixi-va-uning-hukmronlik-uchun-kurashlari>
6. <https://www.rankingthebrands.com/Brand-detail.aspx?brandID=7>
7. <https://kun.uz/news/2024/03/16/ozbekistonda-mcdonalds-fastfud-tarmogi-ochilishi-mumkin>
8. <https://uz24.uz/uz/articles/mcdonalds-3-17>